

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

“SHAYBONIYNOMA” ASARIDAGI TOPONIMLAR XUSUSIDA

Egamova Oltinoy Ashuraliyevna

Guliston davlat universiteti, doktorant.

e-mail: egamovaoltinoy59@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-5879-1052>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligi muammolariga, xususan, tarixiy asarlarda toponimlarning berilishi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotning maqsadi tarixiy asarlarda, xususan, Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarida toponimlar tilining xususiyatlari va imlo muammolari tahlil qilish asosida toponimlarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat. Tadqiqotda quyidagi ilmiy tahlil metodlaridan foydalanilgan: lingvistik tavsiflash, sistem, statistik, kontekstual tahlil usullari. Tadqiqot mavzusiga doir ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda lingvistik tahlil usulidan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari quyidagi ilmiy va amaliy xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini berdi: "Shayboniynoma" asaridagi toponimlarni tahlil qilish, imlo bilan bog'liq muammolarni tartibga solishga va to'g'ri yozishga yordam beradi. Xususan, o'zbek tilshunosligida tarixiy va hozirgi toponimlar o'rtasidagi aloqadorlik masalalari, tarixiy toponimlarning o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'z dolzarbligiga ega; o'zbek tili toponimikasida tarixiy toponimlarning o'rin egallashi, aks etishi quyidagi usullarda namoyon bo'ldi: o'zbek tili xalqning kundalik hayotida muhim o'rin egallashi, o'zbek tilining taraqqiy etishi bilan toponimlarning fonetik o'zgarishi yozuvlarda aks etishi va ommaviy tus olishi. Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asaridagi tarixiy toponimlar maqolaning illyustrativ materiali sifatida xizmat qilgan.

Kalit so'zlar: nom, so'z, atama, toponim, mikrotoponim, etnotoponim, antroponim, imlo, yozuv, til xususiyatlari.

О ТОПОНИМАХ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ШАЙБАНИЙНОМА»

Эгамова Олтиной Ашуралиевна

Гулистанский государственный университет, докторант.

Аннотация.

В данной статье особое внимание уделяется проблемам узбекской лингвистики, в частности, вопросам топонимизации в исторических произведениях. Цель исследования – изучение специфики топонимов в исторических произведениях, в частности, в «Шайбанийноме» Мухаммада Салиха, на основе анализа особенностей языка топонимов и орфографических проблем. В исследовании использовались следующие методы научного анализа: лингвистическое описание, системный, статистический, контекстуальный анализ. Метод лингвистического анализа применялся при анализе научной литературы по теме исследования. Результаты исследования позволили сформулировать следующие научно-практические выводы и рекомендации: анализ топонимов в «Шайбанийноме» помогает упорядочить проблемы, связанные с орфографией и написанием. В частности, в узбекской лингвистике актуальны такие вопросы, как взаимосвязь исторических и современных топонимов, специфика исторических топонимов; Присутствие и отражение исторических топонимов в топонимии узбекского языка проявилось следующим образом: узбекский язык занимает важное место в повседневной жизни людей, фонетические изменения топонимов с развитием узбекского языка отражаются в письменных текстах и становятся популярными. В качестве иллюстративного материала для статьи были использованы исторические топонимы из произведения Мухаммада Салиха «Шайбанийнома».

Ключевые слова: имя, слово, термин, топоним, микротопоним, этнотопоним, антропоним, орфография, письмо, языковые особенности.

ON TOPONYMS IN THE WORK "SHAYBANIYNOMA"

Egamova Oltinoy Ashuraliyevna

Gulistan State University, Doctoral Student.

Abstract.

This article pays special attention to the problems of Uzbek linguistics, in particular, the issues of giving toponyms in historical works. The purpose of the study is to study the specific features of toponyms in historical works, in particular, in Muhammad Salih's "Shayboniynoma" based on the analysis of the features of the language of toponyms and spelling problems. The following scientific analysis methods were used in the study: linguistic description, system, statistical, contextual analysis methods. The method of linguistic analysis was used in the analysis of scientific literature on the topic of the study. The results of the study made it possible to develop the following scientific and practical conclusions and recommendations: Analysis of toponyms in the "Shayboniynoma" helps to regulate problems related to spelling and write correctly. In particular, in Uzbek linguistics, such issues as the relationship between historical and modern toponyms, the specific features of historical toponyms are of relevance; The presence and reflection of historical toponyms in the toponymy of the Uzbek language was manifested in the following ways: the Uzbek language occupies an important place in the daily life of the people, the phonetic changes of toponyms with the development of the Uzbek language are reflected in writings and become popular. Historical toponyms in Muhammad Salih's work "Shayboniynoma" served as illustrative material for the article.

Keywords: name, word, term, toponym, microtoponym, ethnotoponym, anthroponym, spelling, writing, language features.

Kirish. Ma'lumki, leksika tilning yadrosini tashkil qiladi. Biroq bu yadro shu qadar murakkabki, unda umumxalq kommunikativ faoliyatida faol qo'llaniladigan lug'aviy birliklar bilan bir qatorda, umumxalq kommunikatsiyasi uchun muhim bo'lmagan va shu bois umumxalq muloqotini "soxtalashtiruvchi" lug'aviy birliklar ham bir xil lisoniy maqomda mavjud bo'ladi.

Har qanday fan tadqiqotining asosiy vositasi bo'lgan toponimlar, ularning lingvistik tabiati, yuzaga kelish manbalari, yasaliish usullari, tuzilishiga ko'ra turlari hamda ulardagi ma'noning etimologik va semantik jihatlarini tilshunoslikning asosiy masalalaridan biriga aylangan.

Tilshunosligimizda Muhammad Solihning **"Shayboniynoma"** asari turli jihatlaridan tahlil qilingan ilmiy ishlar mavjud. Ammo **"Shayboniynoma"** asarida qo'llanilgan toponimlar yaxlit holda monografik yo'sinda tadqiq etilmagan. Tadqiqotning maqsadi Muhammad Solihning **"Shayboniynoma"** asarida qo'llanilgan toponimlarni aniqlash, ularni mavzuiy guruhlar asosida muayyan tizimga solish hamda lisoniy-kognitiv xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek tilshunosligida terminologik tadqiqotlar XX asrning 30-yillaridan boshlangan va S. Ibrohimov [5], H. Dadaboyev [2], A. Hojiyev [4], I. Sodiqova [15], S. Nurmatova [12], D. Kadirbekova [9], I. Ermatov [3] kabi olimlarning ishlarida o'z aksini topgan.

O'zbek tilshunosligida badiiy asar terminologiyasiga doir tadqiqotlar sanoqli. Dastlab X. Shamsiddinov [25] o'zining nomzodlik dissertatsiyasida badiiy matnda terminning qo'llanish xususiyatlariga to'xtalgan. Mazkur tadqiqotda she'riy matnda terminning uslubiy vazifalari, shuningdek, terminning funksional sinonimlarining qo'llanilish xususiyatlari o'rganilgan.

Keyinchalik H. Dadaboyev XI-XV asrlarga oid turkiy yozma yodgorliklarda qo'llangan terminlar tadqiqi bilan shug'ullangan bo'lsa [2], H. Yodgorov harbiy terminlarning sinxron tadqiqini [21], Z. Isaqova A. Navoiyning **"Majolis un-nafois"** asaridagi ijtimoiy-siyosiy leksikani [6], Z. Xolmonova va Z. Raximovalar Tohir Malikning **"Saodat saroyi"** asarida qo'llangan terminlarni tadqiq etganlar [18].

N. Jalilova badiiy matndagi qon-qarindoshlik terminlarining tipologik va struktur-grammatik tavsifini o'rganagan [7]. D. Jamoliddinovaning doktorlik dissertatsiyasida terminning badiiy asardagi lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari, terminning badiiy matnda uslubiy xoslanishi kabi masalalar tadqiq qilingan [8]. A. Xasanovning tadqiqot ishida Sadrididdin Ayniyning **"Sudxo'rning o'limi"** qissasi terminlarining tarkibiy-mazmuniy xususiyatlari o'rganilgan [20].

Tilshunosligimizda Muhammad Solihning **"Shayboniynoma"** asari turli jihatlaridan tahlil qilingan ilmiy ishlar mavjud [19]. Biz tadqiqotimizda 1989-yilda filologiya fanlari doktori, professor Ergashali Shodiyev tomonidan nashrga tayyorlangan Muhammad Solihning **"Shayboniynoma"** asaridan foydalandik [10].

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqotning obyektini sifatida Muhammad Solihning **"Shayboniynoma"** asaridagi termin va toponimlar olindi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy tahlil metodlaridan foydalanildi: lingvistik tavsiflash, sistem, statistik va kontekstual tahlil usullari. Tadqiqot mavzusiga doir ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda lingvistik tahlil usulidan foydalanildi.

NATIJA

"Shayboniynoma" tarixiy jangnoma doston bo'lib, shoir Muhammad Solih qalamiga mansub asardir. Asar 1506–1507-yillarda yozilgan bo'lib, Shayboniynonning (1451–1510) harbiy yurishlari tasviriga bag'ishlangan.

"Shayboniynoma" 8902 misradan iborat bo'lib, 76 bobdan tashkil topgan. Dostonning dastlabki 16 bobi muqaddimani tashkil etadi. Shundan 1–3-boblar hamd va na'tlarga, 4-bob so'z ta'rifiga, 5–14-boblar Shayboniynonning tavsifi va ta'rifiga bag'ishlangan. 15-bobda **"Kitob nazmining sababi"** bayon etilgan. 16-bob Mullo Abdurahimga

bag'ishlangan.

Asarning syujeti, ya'ni asosiy qismi 17-bobdan boshlanadi. Keyingi boblarda 1499–1500 hamda 1505–1506-yillarda ro'y bergan tarixiy voqealar xronologik izchilikda bayon etilgan.

Dostonda XVI asrning boshlaridagi O'rta Osiyo xalqlarining turmush tarzi, kasb-kori, harbiy hunariga doir qiziqarli ma'lumotlar ham mavjud. Dostonda Sulton Mahmud, Temur Sulton, Bobur, Husayn Boyqaro, Boqi Tarxon, Sulton Ali, Badiuzzamon singari o'nlab tarixiy siymolar ham tasvirlangan.

Dunyo onomastikasida toponimik birliklarning lingvistik xususiyatlari bilan birga ularning ekstralingvistik omillar bilan o'zaro aloqadorligi masalasi doirasidagi tadqiqotlar keng ommalashmoqda. Ushbu semantik maydon tarkibida muayyan hudud joy nomlarini ifodalovchi urbanonim, gidronim, oronim, oykonim, xoronim, nekronim kabi onomastikaning mustaqil turlarining genezisi, etimologik va lingvistik xususiyatlarini mahalliy aholining milliy an'ana va qadriyatlari, urf-odatlar, turmush tarzi, e'tiqodiy dunyoqarashi hamda tarixiy-madaniy boyliklari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida aniqlash, shuningdek, leksik-semantik xususiyatlarini, xalqning lisoniy, tarixiy, geografik, etnografik, diniy-mifologik qarashlari mujassamlashgan toponimlarning lingvogeografik, etnolingvistik, lingvistik, konseptual, paradigmatic va onomastik-grammatik belgilarini ochib berish soha oldidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi [16].

Muhammad Solih XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning boshlarida yashab ijod etgan iste'dodli o'zbek shoirilaridan biridir. Bizgacha shoirning **"Shayboniynoma"** asari yetib kelgan.

Muhammad Solihning **"Shayboniynoma"** dostoni o'zbek klassik adabiyotida alohida o'rin tutadi. Unda temuriylarning inqirozi, yangi shayboniylar saltanatining qaror topishi bilan bog'liq tarixiy voqealar qalamga olingan [10].

Biz ushbu ishimizda Muhammad Solihning **"Shayboniynoma"** asaridagi toponimlarni tahlil qilamiz.

Andijon birla base Asxi aro,

Arxiyon otliq edi bir ma'no.

Andijon – hozirgi Andijon viloyatining markazi, Andijon shahri. Asxi esa Namangan shahri yaqinidagi qal'a, shahar. Arxiyon Andijon va Asxi qal'asi orasida joylashgan qishloq.

Muhammad Solih asaridan olingan ushbu baytdagi toponimlarni tarixiy nuqtayi nazardan lingvistik jihatdan tahlil qilsak, baytda uchraydigan Andijon, Asxi (Axsikent) va Arxiyon toponimlari tarixiy-lingvistik jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Andijon toponimi tarixiy nuqtayi nazardan qadimiy Farg'ona vodiysining yirik shaharlaridan biri bo'lib, yozma manbalarda IX–X asrlardan boshlab **Andukan, Andigon, Andijon** shakllarida uchraydi. XV asrda Muhammad Solih yashagan davrda Andijon Zahiriddin Muhammad Boburning vatani sifatida siyosiy va madaniy markaz hisoblangan.

Toponimning etimologiyasi haqida bir necha qarashlar mavjud: turkiy **andi/anda** va forscha **-jon/-gon** unsurlaridan hosil bo'lganligi, shuningdek, qadimgi mahalliy etnonim yoki antroponimdan kelib chiqqanligi haqidagi fikrlar mavjud. Hozirgi ilmiy adabiyotlarda uning aniq etimologiyasi yuzasidan yakdil xulosa mavjud emas.

X asrdan boshlab tarixiy yozma yodgorliklarda **Andiyan, Andukan, Andugan, Andigan** va nihoyat, **Andijon** (masalan, Boburda XVI asr) shakllarida tilga olinadi. XV asrda Andijon yirik va muhim shahar bo'lib, Farg'ona vodiysining markazi hisoblangan. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining **"Boburnoma"** asarida bu shaharni quyidagicha ta'riflaydi: *"Andijon... Farg'ona viloyatining poytaxtidir. U yerda non ko'p bo'lgan, serhosil mevalar ham ko'p bo'lgan, qovun va uzumlari yaxshi, ammo Andijonning nokidan shirini bo'lmagan"* [22].

Asxi (Axsikent) toponimi tarixiy nuqtayi nazardan bugungi Axsikentdir. Axsikent Farg'ona vodiysining o'rta asrlardagi poytaxti bo'lgan. XVI asr boshlarida ham muhim strategik va iqtisodiy markaz sifatida tilga olinadi. Keyinchalik siyosiy voqealar oqibatida tanazzulga uchragan. Qadimgi manbalarda **Axsikat, Axsikent, Asxi** shakllarida uchraydi. Ikkinchi qism – **kent/kand** qadimgi sug'dcha bo'lib, "shahar" ma'nosini bildiradi. Vaqt o'tishi bilan **Axsikent** nomi **Asxi** shakliga qisqargan.

Asxi so'zi usmonli turk tilida va arab tilida **axs** shaklida omonim sifatida quyidagi ma'nolarda qo'llangan: 1) savdo; 2) oldi-berdi (munosabat); 3) qo'rg'on, qal'a [14]. Y. Uzoqov va A. Aliyevlarning fikricha, **axsi** so'zining "savdo" ma'nosi Axsikent oykonimi uchun asos bo'lgan [17]. Bizningcha, Axsikent oykonimi uchun omonimik **axsi** so'zining "qo'rg'on, qal'a" ma'nolari etimon hisoblanadi. **"Boburnoma"**da keltirilganidek, Asxi Umarshayx Mirzo davrida Andijonning poytaxti bo'lganligi, Bobur tomonidan uning qo'rg'on deb atalganligi, shuningdek, eski Axsikent xarobalari va arxeologlar bergan ma'lumotlar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Demak, **axsi** va **kent** morfemalaridan tarkib topgan oykonim "qo'rg'onli shahar" degan ma'noni anglatadi. Uning lisoniy shakllanishi quyidagicha: **axsi** → **axsi + kent (kat)** → **Axsikat // Axsikent** → **Asxi** [23].

Muhammad Solihning **"Shayboniynoma"** asarida keltirilgan **Arxiyon** toponimi bugungi kunda mustaqil shahar sifatida mavjud bo'lmagan tarixiy joy nomidir. Tadqiqotchilar uni Axsikent atrofi yoki Farg'ona vodiysidagi qadimiy mavze, qishloq yoki mahalla nomi sifatida izohlaydilar. Ayrim tarixiy manbalarda nomning **Arhiyon, Arxiyon, Arg'iyon** kabi variantlari uchraydi. So'z tarkibidagi **-yon/-iyon** affiksi fors-tojik toponimiyasida keng uchraydi. Birinchi qism (**Arxi-/Arh-**)ning kelib chiqishi aniq emas; u qadimgi mahalliy etnonim yoki joy nomi asosida shakllangan bo'lishi ham mumkin. Demak, Arxiyon qadimiy mikrotoponimlardan biri sifatida baholanadi.

Muhammad Solih ushbu baytda Farg'ona vodiysining muhim hududlarini sanab o'tadi. Andijon va Asxi o'sha davrning yirik siyosiy hamda iqtisodiy markazlari bo'lsa, Arxiyon ular orasidagi tarixiy hudud yoki maskan nomini ifodalaydi. Bu toponimlar XV–XVI asrlardagi Farg'ona geografiyasini, siyosiy tuzilishini va aholining hududiy tasavvurlarini aks ettiradi.

Mazkur baytdagi toponimlar tarixiy va lingvistik jihatdan quyidagicha tavsiflanadi:

Toponim	Tarixiy tavsifi	Lingvistik xususiyati
Andijon	Farg'onaning qadimiy siyosiy va madaniy markazi	Etimologiyasi bahsli, qadimiy shahar nomi
Asxi (Axsikent)	O'rta asrlarda Farg'ona poytaxti	-kent ("shahar") komponenti sug'dcha kelib chiqishga ega
Arxiyon	Tarixiy mavze yoki aholi punkti nomi	Forsiy -iyon qo'shimchasi bilan shakllangan qadimiy toponim

Bu bayt Farg'ona vodiysining tarixiy geografiyasini aks ettiruvchi muhim manba bo'lib, undagi toponimlar XV–XVI asrlarda mintaqaning siyosiy, madaniy va lingvistik taraqqiyotini yoritishda qimmatli dalil hisoblanadi.

Shu bilan birga, hozirda asarda berilgan nom bilan aynan bir xil shaklda qo'llanayotgan toponimlarni ham ko'plab uchratish mumkin. Masalan, Andijon, Buxoro, Varzob, Vaxsh, Balx, Kobul, Marv, Samarqand, Termiz, Urganch, Farg'ona, Xatlon, Xo'jand, Sayram, Qarshi, Hisor kabi joy nomlari hozir ham o'zgarishsiz qo'llanmoqda.

Ayrim toponimlar esa fonetik o'zgarishga uchrab, hozir ham amalda qo'llanmoqda. Jumladan: Dizzax (hozirda Jizzax), Ispara (hozirda Isfara), Issig'ko'l (hozirda Issiqko'l), Kandibodom (hozirda Konibodom), Kaspi (hozirda Kaspiy dengizi), Nurratu (hozirda Nurota), Razmitin (hozirda Romiton), Toshkand (hozirda Toshkent), Xavost (hozirda Xovos), O'rotepa (hozirda O'ratepa), Ho'qon (hozirda Qo'qon).

O'tmishda boshqa nom bilan, hozirda esa boshqa nom bilan qo'llanilayotgan toponimlar quyidagilar: Astrobod (hozirda Gurgon), Jayxun (hozirda Amudaryo), Kesh (hozirda Shahrisabz), Sir (hozirda Sirdaryo), Chir (hozirda Chirchiq daryosi), Shosh (hozirda Toshkent).

Tarixiy toponimlarni tasniflash borasidagi X. Bo'riyevaning fikrlari e'tiborga loyiq. Olima Toshkent shahri tarixiy toponimlari xususida so'z yuritib, ularni tasniflashda davriylik jihatiga ham e'tibor berilsa, toponimik manzara yanada aniqroq bo'lishini ta'kidlab, quyidagi tasnifni taklif etgan:

- a) joyning turiga ko'ra;
- b) mazmuni yoki ma'nosiga ko'ra.

Joyning turiga ko'ra toponimlar: gidronimlar, shahar qismlarining nomlari, ma'muriy bo'linmalar va b.

Tarixiy toponimlarning mazmuni yoki ma'nosiga ko'ra: antropotoponimlar, geografik shart-sharoitlarni aks ettiruvchi toponimlar, ijtimoiy-xo'jalik hayoti bilan bog'liq toponimlar va b.

O'z navbatida, olim har ikkala turdagi guruhlar turli jihatlariga ko'ra yana kichikroq guruhlarga bo'linishini qayd etgan [1].

Taniqli toponimist olim N. Oxunov o'zining toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari masalasiga bag'ishlangan tadqiqotida oykonimlar misolida quyidagi tasnifni keltirgan:

1. kishi ismining o'zi bilangina atalgan oykonimlar;
2. kishi ismi va unga qo'shib qo'llangan titul nomidan iborat oykonimlar;
3. gidronimlar;
4. agroonimlar.

Shuningdek, mazkur tasnifda urug'-qabila, xalq, elat nomlari, o'simlik va hayvon nomlari, yer qatlamining tuzilishi va tuproqning tarkibi, suvning turli sifatleri kabi o'ndan ortiq yo'nalish bo'yicha nomlangan toponimlar ajratilishi ko'rsatilgan [13].

Olim toponimlarni paydo bo'lgan davri bilan bog'liq xronologik tasnifga ko'ra eski va yangi nomlarga ajratib, eski nomlarga urug'-qabilachilik davri, aholining sinfiy va ijtimoiy tabaqalanishi, diniy e'tiqod, tushuncha va tasavvurlarga aloqador, o'tmishdagi yirik yer egalari – feodallar, xonlar, amirlar, bekler va boshqa amaldorlar nomi bilan bog'liq, turli voqea-hodisalarni bildiruvchi hamda o'tmishdagi amal va mansabni ifodalovchi nomlar asosida shakllangan toponimlarni kiritishni taklif etgan. Yangi nomlar – neotoponimlar sirasiga esa nisbatan keyingi davrda paydo bo'lgan nomlarni kiritgan [13].

Muhammad Solihning **“Shayboniynoma”** dostoni leksikasida 100 dan ortiq onimlar, jumladan, antroponimlar, toponimlar va etnonimlar qo'llanilganini kuzatamiz.

Yozma yodgorliklar tili onomastikasi, badiiy asarlar tilidagi nomshunoslik masalalari ham atroflicha o'rganilgan. Ammo bu boradagi tadqiqotlar hali yetarli darajada emas. **“Shayboniynoma”** dostonidagi nomshunoslik masalalari alohida tahlilga muhtoj.

“Shayboniynoma” dostonida toponimiya sohasidagi masalalar maxsus yoritilmagan. Ba'zi manbalarda **“Shayboniynoma”** toponimiyasi haqida fikr bildirilgan bo'lsa-da, bu boradagi alohida tadqiqot mavjud emas. Tadqiq etilayotgan asarda toponimlar ba'zan shevalar qonuniyatiga ko'ra o'zgargan holda qo'llansa, ba'zan eng qadimgi tarixiy shaklda uchraydi.

Diskussiya. Muhammad Solihning **“Shayboniynoma”** dostonida quyidagi toponimlar qo'llanilgan: Buxoro (Buxor), Qorako'l, Qal'ayi Karmana, Saripul, Qarshi, Bog'i Maydon, Xuroson, Turkiston, Yassi, So'ron, Kufayin, Faroxin, Xuzor, Kesh, Hiri, Andijon, Qarobog', Samarqand, Jizzax (Dizzah, Dizzax), Ispara, Karmana (Karmina), Shomu Iroq, Misr, Shahrhiya, Shosh, Sayrom, Sirdaryo (Sir), Mo'lkent, O'ratepa (O'rotepa), Savot (Sabot), Hisor, Termiz, Xorazm, Kot, Xiva, Qaroqum, Qunduz, Qarshi, Kesh, Badaxshon, Hisor, Xatlon, Balx, Xuroson, Buxtor, Hiri, Iroq, Vaxsh, Xo'jand, Dashti Ko'lak, Saroy, Qunduz, Farg'ona, Tabriz, Chin, Xito, Rum, Sug'd, Toshkand, Kishtud, Yurg'om, Turfon, Nurratu (Nurota), Axi,

Shahrixia, Kandibodom, Nasux, Xo'tan, Issiqko'l, Oqsu, Mo'g'iliston, Mo'g'ulchin, Xo'tan, Andxud qal'asi, Shaburg'on, Balx, Murg'ob, Xuroson, Qunduz, Bog'lon, Toyqon, Badaxshon, Murg'inon (Marg'ilon), Varzob, Kobul, Vaxsh, O'kuz, Xavost (Xavos), Savriston, Saraxs, Oqsaroy, Turkmon, Hiri (Hiro), Chorjo', Bag'lon, Babrunaxchir, Ko'histon, Norin, Ishkamish, Rog'u, Badaxshon, Xeva, Hazoras, Sihofon, Yazdu, Misr, Shom.

Viloyat, shahar, qal'a, kishvar, kent, qo'rg'on, mahalla (mahallalar), dasht kabi joy va hudud nomlarini ham muallif asarda faol qo'llagan.

"Shayboniynoma" dostonida 100 dan ortiq toponim qo'llangan. Bu toponimlar ma'lum jihatlariga ko'ra quyidagicha guruhlanadi [11].

I. Doston leksikasida kuzatilgan toponimlar qaysi tilga oidligiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi.

Turkiy leksika asosida yuzaga kelgan toponimlar: Qorako'l, Turkiston, Andijon, Qarobog', Samarqand, O'ratepa, Qaroqum, Toshkand, O'kuz, Oqsaroy, Qashqar.

Turkiy so'zlarga "joy" tushunchasini anglatuvchi -iston (forscha) qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan toponimlar: Mo'g'iliston, Turkiston, Ko'histon, Savriston.

Fors tili leksikasiga oid toponimlar: Xuroson, Faroxin, Dizzah, Iroq, Varzob, Chorjo'.

Arab tili leksikasiga oid toponimlar: Makka, Sir.

Xitoy tili leksikasiga oid toponimlar: Mo'g'ulchin, Xito, Chinmochin.

II. Doston toponimlarining tarkibiy qismlariga ko'ra guruhlanishi quyidagicha:

Odatiy leksika sathidan onomastik leksika sathiga o'tgan so'zlar asosida yuzaga kelgan toponimlar: Eron, Sir, O'ratepa.

Bunday joy nomlari asos va qo'shimchadan iborat ekanligi sezilsa-da (Eran), bo'laklarga ajratilmaydi. O'ratepa yasama so'zi ma'no taraqqiyoti natijasida odatiy leksika sathidan onomastik leksika sathiga o'tgan.

Formantli toponimlar (ya'ni tarkibida topoformant bo'lgan joy nomlari): **-kent** – Toshkent, Zarkent, Piskent.

Toponimik aniqlagichli joy nomlari:

a) oronim toponimik aniqlagichli joy nomlari: G'o'dun tog', Zarkat tog'.

b) oykonim toponimik aniqlagichli joy nomlari: Suva qala, Qozon qala, No'g'ay qala.

v) agroonim toponimik aniqlagichli joy nomlari: Eran bog'i.

g) gidronim toponimik aniqlagichli joy nomlari: Varzob, Siyob.

Asar leksikasidagi toponimlar voqelikni hamda qahramonlarning harakat doirasini tasvirlash uchun keltirilgan.

Asar leksikasida etnonimlar ham qo'llangan: o'zbek, qozoq, tatar, no'g'ay, rus, qashqar.

Astronim: Ulkar (Hulkar).

Muhammad Solihning **"Shayboniynoma"** dostonidan olingan quyidagi baytlardagi toponimlarni lingvistik jihatdan tahlil qilamiz.

Chun Xo'jand ishidin o'ldi forig',

Taxt ahlig'a qo'shuldi forig'.

Sug'dning ellarini chopsunlar,

Harna qopqonlarini qopsunlar.

Mo'g'ul o'zga kela olmas bo'ldi,

Yo'l Samarqandg'a solmas bo'ldi.

Toshkand erdi aning taxtgahi,

Tog'u tuzin tutib erdi sipahi.

Shahruxiya dog'i ul xonda edi,

Lek xalqi bori armonda edi.

O'ratepa dog'i ul xon qo'lida,

Fonu Kishtud ham aning yo'lida.

Mulkining bir yoni Sayrom erdi,

Bir yoni Dizzadu Yurg'om erdi [10].

Muhammad Solihning **"Shayboniynoma"** dostonida uchraydigan toponimlar tarixiy-geografik va lingvistik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Quyida ularning lingvistik tahlili keltiriladi.

Toponim	Lingvistik kelib chiqishi	Ma'nosi va izohi
Xo'jand	Fors-tojikcha. "Xo'ja" (hurmat unvoni) + qadimgi "-and" joy nomi yasovchi unsur.	Tojikiston Respublikasidagi qadimiy shahar. Doston voqealarida strategik hudud sifatida tilga olinadi.
Sug'd	Qadimgi eroniy <i>Suguda</i> , yunoncha <i>Sogdiana</i> shakllaridan kelib chiqqan.	Markaziy Osiyoning tarixiy viloyati. Samarqand va Buxoro atrofidagi hududlarni anglatadi.
Samarqand	Eroniy tillardan. Ko'pchilik olimlar uni "Samar" + "kand/kent" (shahar, qal'a) tarkibidan deb izohlaydilar.	Qadimiy shahar bo'lib, doston voqealarida siyosiy markaz sifatida tilga olinadi.
Toshkand (Toshkent)	Turkcha tosh + sug'dcha kent/kand (shahar).	"Tosh shahar" ma'nosini bildiradi. Hozirgi Toshkentning tarixiy nomi.

Shahruxiya	Forscha Shahrux (temuriy hukmdor nomi) + -iya nisbat qo'shimchasi.	Amir Temur avlodidan Shohrux nomi bilan bog'liq shahar. Hozirgi Toshkent viloyatidagi tarixiy manzilgoh.
O'ratepa (O'rotepa)	O'zbekcha o'ra yoki o'rta bilan bog'liq deb qaraladi, tepa – balandlik.	Hozirgi Tojikistonning <i>Istaravshan</i> shahri tarixiy nomi.
Fon (Falg'ar)	Qadimgi mahalliy toponim.	Zarafshon vodiysidagi tarixiy hududlardan biri.
Kishtud (Kshtut)	Sug'diy kelib chiqishga ega qadimiy joy nomi.	Zarafshon vodiysidagi qadimiy qishloq va daralardan biri.
Sayrom	Turkcha va forsiy manbalarda Isfijob nomi bilan ham uchraydi.	Hozirgi Qozog'iston hududidagi qadimiy shahar.
Dizzak (matnda Dizza)	Forscha diz/dej – “qal'a”, -ak kichraytirish qo'shimchasi.	Hozirgi Jizzaxning tarixiy nomi hisoblanadi.
Yurg'om	Tarixiy manbalarda Urgom, Orgom shakllarida uchraydi.	Samarqand viloyati atrofidagi qadimiy hudud nomi bo'lib, o'rta asr manbalarida qayd etilgan.

Qayd etilgan toponimlarning lingvistik xususiyatlariga to'xtalamiz. Toponimlar kelib chiqishiga ko'ra: **turkiy** toponimlar – Toshkand, O'ratepa; **fors-tojik va eroniy qatlamga mansub** toponimlar – Xo'jand, Sug'd, Samarqand, Shahruxiya, Dizzak; **sug'diy kelib chiqishga ega** toponimlar – Fon, Kishud.

Tuzilishiga ko'ra **sodda** toponimlar – Sug'd, Sayrom, Xo'jand; **qo'shma** toponimlar – Toshkand (tosh + kand), Samarqand (samar + kand), O'ratepa (o'ra + tepa), Shahruxiya (Shahrux + iya) kabi guruhlariga ajratiladi.

Toponimlarning semantik xususiyatlari. Aksariyati shahar va viloyat nomlari bo'lib, Shayboniyxon hukmronligi davridagi siyosiy-geografik hududlarni ifodalaydi. **-kand/-kent, -tepa, diz/dej** kabi topoformantlar Markaziy Osiyo toponimiyasining qadimiy qatlamini aks ettiradi.

Xulosa. Mazkur toponimlar XV–XVI asrlar Movarounnahr va unga tutash hududlarning tarixiy-geografik manzarasini yoritadi. Ularning tarkibida turkiy, sug'diy va fors-tojik til qatlamlariga oid unsurlar uyg'unlashgan. Ayniqsa, **-kand/-kent** (“shahar”), **-tepa** (“balandlik”), **diz/dej** (“qal'a”) kabi topoformantlar o'sha davr toponimiyasining asosiy lingvistik belgilarini namoyon etadi. Bu esa **“Shayboniynoma”**ning nafaqat tarixiy-adabiy, balki onomastik va lingvistik manba sifatidagi ahamiyatini ham ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Bo'riyeva X. A. Tarixiy toponimlarning tasniflanishiga doir (Toshkent shahri misolida) // *“O'zbek tilshunosligi XXI asrda” nomshunos olim professor To'ra Nafasov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy anjuman materiallari.* – Qarshi, 2008. – B. 35–37.
- Дадабаев Х. *Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI–XIV вв.* – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.
- Ermатов I. Terminologiya tizimida gipero-giponimik va ekvonimik munosabatlar (tilshunoslik terminlari misolida): Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 67 b.
- Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. *Axborot.* 11–12-chiqaruv. – Toshkent: Fan, 1996. – 45 b.
- Ibrohimov S. *Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi.* II–III. – Toshkent: Fan, 1959. – 456 b.
- Isaqova Z. Alisher Navoiyning *“Majolis un-nafois”* asaridagi ijtimoiy-siyosiy leksika: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 2010. – 24 b.
- Jalilova N. R. Badiiy matndagi qon-qarindoshlik terminlarining tipologik va struktural-grammatik tavsifi: Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 44 b.
- Jamoliddinova D. Badiiy matnda terminlarning lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari: Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 54 b.
- Qadimbekova D. X. Inglizcha-o'zbekcha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari: Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 44 b.
- Muhammad Solih. *“Shayboniynoma”.* Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi filologiya fanlari doktori, professor Ergashali Shodiyev. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1989. – 336 b.
- Nazarov K., Enazarov T. *Joy nomlarini yig'ish so'roqligi.* – Toshkent, 1995. – B. 21–24.
- Нурматова С. Х. *Истоки формирования и функционирование астроавиакосмической терминологии в лексике английского, русского и узбекского языков:* Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2000. – 24 с.
- Oxunov N. *Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari.* – Toshkent: Fan, 1989. – B. 18.
- Радлов В. В. *Опыт словаря тюркских наречий.* – СПб. – Т. I. – С. 138.
- Садыкова И. Х. *Принципы составления англо-русско-узбекского учебного словаря юридических терминов:* Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1998. – 174 с.
- Turdibekov M. *Shimoliy Tojikiston toponimlarining tarixiy-lingvistik xususiyatlari:* Filol. fan. dokt. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – B. 5.
- Uzoqov Yo., Aliyev A. *Namangan toponimikasidan // O'zbek tili va adabiyoti masalalari.* – Toshkent: Fan, 1968. – B. 90.

18. Xolmonova Z., Rahimova Z. Badiiy matnda terminlarning o'xshatish sifatida qo'llanishi (T. Malikning *"Saodat saroyining kaliti"* asari misolida) // *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*. – 2023. – Vol. 3. – No. 1 (Part 1). – B. 147–150.
19. Xolmanova Z. *"Shayboniyxon" dostoni leksikasi* (Po'lkan shoir varianti asosida): Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 1998. – 24 b.
20. Xasanov A. Sadridin Ayniy *"Sudxo'rning o'limi" povesti terminlarining tarkibiy-mazmuniy tahlili*: Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 52 b.
21. Yodgorov H. O'zbek tili harbiy terminologiyasining sinxronik tadqiqi: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 1996. – 26 b.
22. *O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati / tuzuvchilar R. Y. Xudoyberganov [va boshq.]*. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 624 b.
23. *O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati*. Ikki jildli. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2024. – 460 b.
24. *O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati*. Ikki jildli. 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2024. – 432 b.
25. Шамсиддинов Х. *Термины в художественной речи*: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 18 с.